

## LUQMA-GAP STRUKTURALI FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR

*Tursunov Ahmad Amirovich*

*Roman-german tillari fakulteti*

*Ikkinchi chet tillar kafedrasida o'qituvchisi Samarqand davlat chet tillar instituti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola strukturali frazeologik birliklarning yana bir turi luqma gap strukturali frazeologik birliklarni o'rganadi. Maqolada gap strukturali frazeologik birliklarning ushbu turi ijobiy va salbiy ma'nolarga ega frazeologik birliklarga nisbatan alohidaligi bilan tavsiflanadi.

**Kalit so'zlar:** luqma-gap strukturali frazeologik birliklar, semantika, modallik, ko'pvazifalilik, parymiya

Gaplashgan frazeologik birliklar ko'pincha turli semantik, modal-baholash va ekspressiv jihatlarni o'z ichiga oladi. Nemis tilida gaplashgan frazeologiyani guruhlantirish turli-tuman semantik tagturlarga asoslanadi. Ushbu maqolada ijobiy ma'no kasb etuvchi luqma-gap strukturali frazeologik birliklar ko'rib chiqiladi va tahlil qilinadi. Gap strukturali frazeologik birliklarning ushbu turi ijobiy va salbiy ma'nolarga ega frazeologik birliklarga nisbatan alohidaligi bilan tavsiflanadi. Bu yerda quyidagi tuzilmalarni ko'rib chiqishimiz mumkin:

1. Biror bir fakti, harakat natijasini ta'kidlash ma'nosiga ega gap strukturali frazeologik birliklar. Bunday frazeologik birliklar odatda luqmalarni tugatib, yuqorida aytib o'tilganlarni o'ziga xos tarzda yakunlaydi. Qiyoslang: **Das kannst du abschreiben!** 'Bu narsani yo'qolgan deb hisoblashing mumkin! Bu bilan bir umrga xayrlashsang bo'ladi!'; **Schön ist anders!** 'Uncha yaxshi emas!'; **Da fiel ihm die Butter vom Brot!** 'Ishi yurishmadi! Omadi kelmadi!'

Ushbu turdagi frazeologik birliklarning ayrimlari paremiyalar bo'lib, ulardagi obraz u yoki bu hayotiy vaziyatni aks ettiradi [1]. Quyidagi paremiologik birlikni qiyoslang: **Abwarten und Tee trinken! Erst abwarten, dann Tee trinken!** 'Sabr, sabrning tagi sariq oltin! Omon bo'lsak - ko'rarmiz'; **Es falle wie es wolle!** 'Nima bo'lsa, bo'lar!'; **Jeder fege vor seiner Tür!** 'Birovning ishiga burningni tiqma! Aralashma!'; **Wir werden ja sehen, wie der Hase läuft!** 'Omon bo'lsak ko'rarmiz'. Frazeologik birlik vazifasini bajaruvchi paremiologik birliklar ham quyidagi semantik-modal ma'nolarni ifodalaydi: 1) (tinchlik, intizomga) da'vat etish: **Nicht ärgern, nur wundern!** 'Tinchlan, o'zingni bos! Hasad qilma, havas qil!'; **Mensch, ärgere dich nicht!** 'Qizishma!'; **Pfau, schau deine Beine!** 'Ko'zingga qara! Boshqalarni ayblama, o'zingni bil!'; 2) so'zlovchining adresat xulqi yoki qilig'iga nisbatan munosabati, javobi: **Wie du mir, so ich dir!** 'Sendan ugina, mendan bugina! Salomiga yarasha aligi! Qilmish-qidirmish; Qonga qon, jonga jon'; **Wie es fällt, so bullert's** 'Qilmishiga yarasha jazosi'; 3) biror narsani ta'kidlash: **Siehst du, so läuft der Hase** 'Ana shunaqa gaplar'; **Da liegt der Hase im Pfeffer!** 'Hamma gap mana shunda!'

2. Suhbatdoshining fikriga qo'shilmagan adresat tomonidan aytiladigan gap frazeologik birlik - luqmalar: **Ich bin doch nicht dein Affe!** 'Ahmog'ingni topibsan!'; **Nicht für einen Wald voll Affen!** 'Tilla bersa ham, boshimdan zar sochsa ham rozi emasman'; **Ich bin doch nicht vom wilden Affen gebissen** 'Men hali aqlimni yeb qo'yganim yo'q'; **Kein Bein!** 'Bekor gap! Bo'lishi mumkin emas! Sira unday emas!'; **Erzähle keine Märchen!** 'Cho'pchak aytma! Xayolingga keltirma!'; **Erzähl uns keine Fabeln!** 'Bizga yolg'on gapirma!'; **Da lachen ja die (alle) Hühner!** 'Kulgili gap!'; **Damit kannst du keinen Hund**

**vom Ofen locken** ‘Bunga hech kim uchmaydi, qiziqmaydi!’. Bunday gap frazeologik birliklar ko‘pincha eshitgan fikr borasidagi taajjub ma‘nosini ifodalaydi. Ular aytilgan gapning mantiqiyliigi, so‘zlovchi uddalay olmaydigan taklifning puchligi haqidagi modal ottenkani o‘z ichiga oladi: **Ich kann es nicht aus dem Ärmel schütteln!** ‘Buni men qayerdan olaman!’. Bunda ushbu semantik guruhdagi gap frazeologik birliklarda suhbatdoshning adashganligi, nohaqligi eslatib o‘tiladi: **Sie befinden sich in einem großen Irrtum!** ‘Siz yanglishyapsiz! Siz chuqur adashyapsiz!’.

Ushbu turdagi gap tuzilishiga ega frazeologik birliklarda suhbatdoshning fikriga qo‘shilmasligini ifodalovchi modal ma‘nolar ham beriladi. Bunda so‘zlovchi o‘z fikri orqali suhbatdoshi umumiy qabul qilingan hulq me‘yorlarining chegarasidan chiqishini ta’kidlab o‘tadi yoki suhbatdoshi amalga oshirgan ishning noto‘g‘riligi ta’kidlanadi: **Da hört (sich) doch alles (manches, verschiedenes) auf!** ‘Bu hech qanday aqlga sig‘maydi!’. Ko‘p holatlarda suhbatdosh gapiga ishonchsizlik ifodalanadi: **Das machst du anderen weis!, Das kannst du anderen erzählen!** ‘Ahmog‘ingni topibsan! Bu ertagingni buvingga aytib ber’; **Faule Ausrede(n)!** ‘Bekor bahonalar! Bekor gap!’.

Ayrim gap frazeologik birliklar eshitgan fikr yoki bo‘lgan ish sababli bezovta, notinch so‘zlovchining ruhiy holatini yetkazib beradi: **Da hört (sich) der Spaß auf!** ‘Hazilingni yig‘ishtir!’. Ushbu guruhdagi gap frazeologik birliklar so‘zlovchining suhbatdosh hulqiga salbiy munosabatini ifodalashi mumkin: **Du müßtest vor Scham in den Erdboden sinken!** ‘Yer yorilib yerga kirib ketmaysanmi (uyatdan)!’; **Du bist ein Nagel zu meinem Sarge** ‘Meni go‘rga tiqasan!’. Bunda replika suhbatdoshning qiligi yoki harakatining qonuniyligida shubha ma‘nosiga ega ritorik savolning ekspressiv-modal tusini o‘z ichiga oladi: **Du fängst ja gut an!** ‘O‘zingga ko‘p narsani ep ko‘rasan! O‘zingga ko‘p narsani mumkin deb o‘ylaysan!’.

Bunday modal-semantik tusga ega gap frazeologik birliklar suhbatda gap kim haqida ketgan bo‘lsa, shu insonga nisbatan ishlatiladi. Mazkur gap frazeologik birliklar uchun har xil semantik-modal tuslar xarakterlidir [1]. Misol uchun, bu manmanlik, takabburlik, o‘zini hammadan yuqori qo‘yish kabi salbiy tavsiflar bo‘lishi mumkin: **Der gibt aber an!** ‘O‘zini buncha katta oladi! Burniga xoda yetmaydi!’.

3. Gap frazeologik birlik – luqmalar shaxsga nisbatan tahdidni ifodalay olishi mumkin: **Möge er nur ankommen!** ‘Tumshug‘ini suqmasin!’. Yoki bunday frazeologik birliklar adresatga nisbatan so‘zlovchi tomonidan bildirilgan tahdid ma‘nosida ishlatiladi [2]: **Diesmal laß ich dich nicht durchwischen!** ‘Bu safar mendan qutila olmaysan!’; **Da wirst du (kannst du, sollst du) (aber) mal was erleben!** ‘Xah senimi! Qarab tur hali sen!’; **Es wird etwas Gehörigs setzen!** ‘Sen yaxshilab gap eshitasan!’; **Ich werde dir einen anderen Tanz geigen!** ‘Men seni hali o‘ynataman!’. Bunday gap frazeologik birliklarda adresatning mushkul ahvoli, unga nisbatan paydo bo‘lgan xavf aks ettiriladi: **Du kannst deinen Laden zumachen** ‘Ishing chatoq, ish pachava’. Yoki ushbu luqmalar ish holatini salbiy jihatdan baholaydi: **Das sieht mies aus!** ‘Bu bo‘lmag‘ur ish!’; **Die Sache steht mies!** ‘Ish pachava!’.

4. So‘zlovchining biror narsaga nisbatan farazi ma‘nosini yetkazib beruvchi gap strukturali frazeologik birliklar: **(Ach) daher weht der Wind!** ‘Bunday tushunish kerak ekan!’; ‘Ana shamol qayoqdan esyapti ekan!’.

5. So‘zlovchi tomonidan istak bildiruvchi, amalga oshirgan ishidan saboq qidirishini anglatuvchi gap strukturali frazeologik birliklar: **Laß es dir zur Lehre dienen!** ‘Bu senga saboq bo‘lsin!’; ‘Bu senga dars bo‘lsin!’.

6. Soʻzlovchi zerikkan, bezor boʻlgan holda ishlatiladigan gap strukturali frazeologik birlik – luqmalar: **Das hängt mir zum Halse heraus** ‘Jonimga tegdi; Oʻlguday bezor boʻldim’; **Es ist zum Kotzen!** ‘Jonimga tegdi! Qusgim kelyapti!’.

7. Biror kutilmagan holat yuzasidan hayron qolish ifodalangan u yoki bu hayrat darajasini bildiruvchi gap frazeologik birlik: **Ich denke, mich laust (kratzt) der Affe** ‘Hayratdan yoqa ushladim! Boshim gangib qoldi!’. Bunday maʼnodagi gap frazeologik birliklar ham suhbatdoshga nisbatan ishlatilishi mumkin, qiyoslang: **Du ahnst es nicht!** ‘Sen buni tasavvur ham qila olmaysan! Hayratdan dong qotasan!’; **Da haben (hätten) wir die Bescherung!, Das ist (ja) eine schöne (nette, reizende) Bescherung!** ‘Hech vaqosiz qolding! Ana xolos! Obbo! Ol-a!’; **Mein lieber Mann!** ‘Ajabo! Yo tavba!’; **Aber Mensch!** ‘Voy-boʻy! Ana xolos!’.

8. Biror boshqa shaxs tomonidan amalga oshirilgan hatti-harakat, qilmishga nisbatan soʻzlovchining salbiy-qoralovchi munosabatni ifodalovchi gap strukturali frazeologik birliklar: **Da hast du aber was Schönes angestellt!** ‘Bemaʼni ishlar qilib qoʻyding! Sen qilgʻilikni qilib qoʻyding!’; **Der hat was Schönes gebraut!** ‘Nima ish qilib qoʻydi! Bosh ogʻriqni orttirdi!’; **Man kann dir nichts zu Dank machen!** ‘Koʻnglingdagini topib boʻlmaydi!’.

9. Soʻzlovchining adresat tomonidan bajarilgan maʼlum ish-harakatlar yoki qiliqlar boʻyicha turli hasratlarni yetkazib beruvchi gap strukturali frazeologik birliklar: **Ich habe meinen lieben Ärger mit dir!** ‘Sen bilan juda qiynalib ketdim!’. Bunda ushbu gap strukturali frazeologik birliklarda oxirgi shaxs uchun yoqimsiz, istalmagan narsa munosabati bilan hamdardlik bildiriladi: **Gnade ihm (Gott)!** ‘Xudo sabr bersin! Oллоh rahmatiga olsin!’.

10. Biror omadsizlik, noxush hodisa borasidagi haqorat – luqmalar sifatida ishlatiladigan gap strukturali frazeologik birliklar semantik-modal xususiyatlarning boyligi bilan ajralib turadi [3]. Qiyoslang: “jin ursin!” maʼnosidagi gap frazeologik birliklar: **Himmel, Arsch und Zwirn (Wolkenbruch)!** ‘Jin ursin!’; **Potz Blitz!** ‘Jin ursin!’; **(Zum) Donnerwetter!, (Zum) Donnerwetter nochmal!** ‘Obbo! Jin ursin!’; **Donner und Doria!** ‘Jin ursin!’. Bunday gap strukturali frazeologik birliklar umumiy asos soʻzga tayangan holda frazeologizmlarni shakllantirishi mumkin [4]. *Element* soʻzini oʻz ichiga olgan frazeologiyani qiyoslang: **Potz Element!, beim Element!, Zum Element! Potztausend Element!** ‘Jin ursin!’. Mazkur semantik guruhdagi gap strukturali frazeologik birliklar luqma tinglovchisiga aniq moʻljallanganligi bilan tavsiflanadi: **Daß dich der Daus!** ‘Jin ursin seni!’. Ularning koʻpchiligi mutlaq qoʻpol modal maʼno bilan ishlatiladi: **Geh mir mit ihm!** ‘Mayli, shunday boʻlsa-boʻlar! Nima boʻlsa boʻlar!’.

11. Biror shaxs tomonidan aytib berilgan narsaga nisbatan salbiy xulosa sifatida ishlatiladigan gap frazeologik birliklar. Bunday frazeologik birliklar soʻzlovchining noroziligi, uning gʻazablangan ruhiy holatini yetkazib beradi. Qiyoslang: **Das ist ja alles aufgewärmter Kohl!** ‘Eski hammom, eski tos!’; **So ein Bart!** ‘Bu eski gap! Bu gap koʻp gapirilgan (chaynalgan)!’; **Das ist eine belemmerte Geschichte!** ‘Ahmoqona hikoya!’; **Erzähle mir nur keine Märchen!** ‘Yolgʻon gapirma! Choʻpchaklaringni yigʻishtir!’.

12. Soʻzlovchining oʻzi haqida maʼlumot yetkazib beradigan (uning soʻzlaridan) gap frazeologik birliklar. Misol uchun, uning jismoniy holati haqida gap ketadi: **Ich habe eine dicke Birne** ‘Boshim yorilib ketay deyapti’.

13. Turli-tuman tasdiqlar, kafilliklarni bildiruvchi gap strukturali frazeologik birliklar: **Ich gebe dir Brief und Siegel!** ‘Seni ishontirib aytaman!’.

14. Shubha, ikkilanish, sarosimalik, ilojsizlik semantikasini ifodalovchi gap frazeologik birliklar: **Weiß der Deibel!** ‘Kim biladi!’; **Das ist ja zum Haarausraufen!** ‘Menga desa sochingni yul!’.

15. So‘zlovchi inobatga olmagan yoki ahamiyatsiz, arziyas deb hisoblagan narsaga qat‘iy javobni beradigan gap strukturali frazeologik birliklar: **Da frag ich den Deibel danach!** ‘Bunga tupurganim bor!’; **Dafür kann ich mir nichts kaufen!**; **Was ich mir dafür kaufe!** ‘Zarur keliptimi? Ko‘zim uchib turgani yo‘q!’.

16. “Kimningdir, nimaningdir dahli yo‘q” ma‘nosidagi luqmани bildiruvchi gap strukturali frazeologik birliklar. Hazil ma‘nosi bilan qo‘llanilgan gap frazeologik birlikni qiyoslang: **Das ist nichts für kleine Kinder!** ‘Bunga dahlingiz yo‘q! (so‘zma-so‘z: Bu kichkina bolalar uchun emas!)’.

17. So‘zlovchining biror narsaga nisbatan zavqini, ma‘lum hodisa, tomosha munosabati bilan ko‘tarinki kayfiyatini ifodalaydigan gap strukturali frazeologik birliklar: **Das war dir ein Spaß!** ‘Maza qildik!’; **Das ist ein Gedicht!** ‘Oshiq bo‘ldim!’; **(Das ist) einfach Klasse!** ‘Juda ajoyib!’; **Das ist ja klassisch!** ‘Qoyil-maqom!’; **Das ist (doch) einzig!** ‘Juda yaxshi! Juda zo‘r! Juda soz!’; **Ach, wie (ist das) Süß!** ‘Oh, qanday go‘zal!’.

18. Hayratdan hayqiriqlar ko‘rinishida keng ishlatiladigan gap frazeologik birliklar: **Du meine (du liebe) Güte!** ‘Voy xudoyimey!’; **Herr du meines Lebens!** ‘Yo tavba! Astag‘firullo!’; **Herr, du meine Güte!** ‘E, xudo!’.

19. Alamni ifodalovchi gap strukturali frazeologik birlik – luqmalar: **Man möchte die Wände hinaufgehen!** ‘Boshingni devorga ursangham, iloji yo‘q!’; **Es ist, um die Wände hinaufzuklettern!** ‘Aqlimga sig‘dirolmayman! Aqldan ozish mumkin!’.

20. Har xil qasam ichish iboralarini o‘z ichiga olgan gap strukturali frazeologik birliklar: **Bei Gott!** ‘Xudo haqi! Xudo ursin! Rostdan ham!’; **Bei meiner Ehre!** ‘Vijdonim haqi!’; **Bei Christi!** ‘Xudo haqi!’; **Da laß ich mich (gleich) fressen** ‘Kallamni kesib tashlayman!’; **Meine Hand drauf!** ‘Va‘da beraman! Qasam ichaman!’; **Bei des Heilands Wunden!** ‘Xudo xaqi!’; **Meiner Seele!** ‘Rostdan ham! O‘lay agar!’ Bunday qasam ichish iborolari ba‘zan qo‘pol semantik-modal ma‘noning mavjudligi bilan ajralib turadi: **Holl mich dieser oder jener!** ‘Ko‘zim ko‘r bo‘lsin! Ko‘zimdani chiqsin!’; **Ich will ein Schelm sein, wenn ich das getan habe!** ‘Agar men buni qilgan bo‘lsam, til tortmay o‘lay!’; **Mich soll das Mäuschen beißen, wenn das nicht wahr ist!** ‘Shu narsa haqiqat (to‘g‘ri) bo‘lmasa, O‘lay agar! Xudo ursin!’.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Сафаров Ш. О дискурсивно-прагматической директивных речевых актов // Текст: структура и анализ. –М., 1989. –С. 142-146.
2. Чернышева И. И. Текстобразующие потенции фразеологических единиц // Лингвистика текста, ч. II. –М., 1974. –С. 155 -160.
3. Чернышева И. И. Feste Wortkomplexe des Deutschen in Sprache und Rede. –М.: Высшая школа, 1980. –144 с.
4. Яхшиев А. А. Немис тили оғзакни нутқи тизимида фразеологик бирликларнинг семантик-дискурсив мақоми: филология фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. –Самарқанд, 2021. –74 б.
5. Amirovich, T. A. (2023). SYNTACTIC PHRASEOLOGY. CONCEPT OF PHRASE-SYNTACTIC SCHEME. *Miasto Przyszłości*, 42, 621-627.